



XORIY TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

doi Digital object
identifier

Google
Scholar

OpenAIRE

INDEXING



**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
INGLIZ FILOLOGIYASI FAKULTETI
INGLIZ TILI FUNKSIONAL LEKSIKASI KAFEDRASI**

**XORIJIY TILLARINI O'QITISHDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR:
NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plami

Toshkent, O'zbekiston

**2025-yil 29-mart
Toshkent**



**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

**XORIJIY TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR: NAZARIYANING AMALIYOTGA
TATBIQI**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO'PLAMI

Toshkent, O'zbekiston

CONFERENCE PROCEEDINGS

of the republic scientific and practical conference

**INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING FOREIGN
LANGUAGES: APPLYING THEORY TO PRACTICE**

Tashkent, Uzbekistan

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

республиканской научно-практической конференции

**ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ: ПРИМЕНЕНИЕ ТЕОРИИ
НА ПРАКТИКЕ**

Ташкент, Узбекистан



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

UDK: 378.091.33:81'243 K 96

KBK: 74.58+81.2

K 96

“Xorijiy tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar: nazariyaning amaliyotga tatbiqi” / -
Ziyo nashr-matbaa nashriyoti”, Toshkent. – 2025. – 1520 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektorining 2025-yil 13-mart sanasidagi 125/11-08-sonli “Xorijiy tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar: nazariyaning amaliyotga tatbiqi” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumanini yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i asosida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz filologiyasi fakulteti, Ingliz tili funksional leksikasi kafedrasidan 2025-yil 29-mart sanasida tashkil etilgan “Xorijiy tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar: nazariyaning amaliyotga tatbiqi” masalalariga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan. Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar

Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plamidan professor-o‘qituvchilar, tayanch doktorantlar va tadqiqotchi mutaxassislar, yosh olimlar va mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlar, bakalavr bosqichidagi talabalar foydalanishlari mumkin.

Ishchi guruh raisi

Ingliz filologiyasi fakulteti dekani

Azzamov Yusufjon Radjaboy o‘g‘li

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mas’ul muharrir

Kushiyeva Nodira Xabibjonovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Taqrizchilar

Xolmurodova Madina Alisher qizi

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Ummatkulovna

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yakubova Noira Isxakovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati

Niyozov Jumanazar Farxod o‘g‘li

Jumakulova Nargiza Raxmatillayevna

Raximova Go‘zal Bagriddinovna

Normaxmatova Feruza Ruziboyevna



EMOTIV FRAZEMA TIL BELGILARI TIZIMIDA: DISKURS TAHLIL

Xolova Shahnoza Davronovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Shaxnozaxolova25@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179671>

Annotatsiya: Til insonning fikr va his-tuyg'ularini ifodalash vositasi sifatida, ko'plab muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Emotiv frazema – bu tilning badiiy va psixologik jihatlarini ochib beruvchi, his-tuyg'ularni aks ettiruvchi ifodalar to'plamidir. Ushbu maqolada, emotiv frazemalarning til belgilari tizimidagi o'rni va ahamiyatini diskurs tahlil orqali o'rganamiz.

Kalit so'zlar: hissiyotlar, frazema, til belgilari tizimi, kontekstual, tahlil.

Kirish. Til bu-insonlar o'rtasidagi muloqotning asosiy ijrochisi bo'libgina qolmay, balki milliy madaniyatning o'ziga xosligini aks ettiruvchi, uni saqlovchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Tilning ajralmas qismi bo'lib hisoblanuvchi frazeologik birliklar esa nutqning ta'sirchanligini, ifodaliligini va boyligini oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, ularni o'rganish, tadqiq etish masalasi bejizga bugungi kunda tilshunoslar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmayapti. Frazeologizmlar nutqda faol ishlatilar ekan, odamlar yashayotgan joyiga xos xususiyatlarni, madaniyati, tarixi, tabiati, iqtisodiyoti, milliy urf-odatlarini an'analarni, milliy-madaniy merosi, xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyoti va san'atini turli iboralar, so'z qo'shilmalari, maqollar va matallar yordamida avloddan-avlodga yetkazib berishadi.

Hozirgi kunda tilshunoslikda frazeologiya bo'limi keng qamrovda tadqiq etilyapti. Asosiy frazeologik birliklardan biri hisoblangan frazemalar ko'pgina g'arb tilshunos olimlari tomonidan o'rganilishda davom etmoqda. Tilning lug'at tarkibiga faqat so'zlar emas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar *frazeologizmlar, frazeologik birikmalar* yoki *iboralar* deb ataladi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi. Bu bo'limda ibora, ko'chma ma'noli so'z qo'shilmalari, idiomalar, maqollar va frazemalar o'rganiladi. Emotiv frazema esa – bu muayyan bir hissiy holat yoki kayfiyatni ifodalovchi, ko'pincha metaforik yoki simbolik ma'noga ega bo'lgan iboralardir. Ular sub'ektiv his-tuyg'ularni aniq va rang-barang tarzda ifodalash imkonini berib, ko'pincha do'stlik, sevgidan tortib, g'azab yoki xavotirgacha bo'lgan turli hissiyotlarni ifodalaydi. Masalan, “og'zi qulog'ida”, “ko'ngli yorishdi” kabi iboralar insonlarning ijobiy his-tuyg'ularini kuchliroq aks ettiradi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Til belgilari tizimi – bu tilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u so'zlar, iboralar va grammatik strukturalardan tashkil topadi. Har bir belgi o'ziga xos ma'no va vazifaga ega bo'ladi. Emotiv frazemalar bu tizimda muhim rol o'ynaydi, chunki ular juda ko'p hissiy holatlarni ifodalashda yordam beradi. Bugungi kunda qiyosiy tilshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar oldida fransuz va o'zbek tillarida emotiv frazemalarni diskurs tahlil qilish vazifasi dolzarb bo'lib turibdi. Diskurs tahlili — bu matn yoki suhbatlar kontekstida tilning qanday ishlatilishini o'rganish usuli hisoblanadi. U matn yoki nutqdagi ma'nolarni chuqur o'rganish usuli bo'lib, unda kontekstga e'tibor qaratiladi. Emotiv frazemalarni diskurs orqali tahlil qilish bir necha jihatdan muhimdir:

1. Kontekstualizatsiya: Emotiv frazemalar har doim kontekstga bog'liqdir. Ularning ma'nosi faqatgina so'zlardan emas, balki u ishlatiladigan vaziyatdan ham kelib chiqadi. Masalan, o'zbek tilida "kapalagi uchdi", "bosh egmoq", "oyog'i yengil" kabi, fransuz tilida esa "avoir les larmes aux yeux", "coup de foudre", "se serrer le cœur" kabi iboralar turli kontekstlarda turlicha ma'nolar kasb etishi mumkin.

2. O'zaro aloqalar: Frazemalar orasidagi aloqalarni aniqlash orqali biz ularning qanday qilib bir-birini to'ldirishini yoki qarama-qarshi kelishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa tilning murakkabligini va kommunikativ funksiyalarini tushunishga yordam beradi.

3. Hissiyotlarni aniqlash: Diskurs tahlili yordamida emotiv frazeologizmlarning yashirin ma'nolarini aniqlash mumkin. Bu esa tadqiqotchilarga qaysi frazemalarning qaysi hissiyotlarni aks ettirish uchun eng samarali ekanligini tushunishga imkon beradi.

O'zbek tilida emotiv frazeologizmlar milliy madaniyat va umumbashariy qadriyatlarni aks ettiradi. Emotiv frazeologizmlarni diskurs tahlilida kontekstual va madaniy asos, ijtimoiy aloqalar kabi muhim jihatlar e'tiborga olinadi. Ya'ni, emotiv frazeologizmning ishlatilishi doimiy ravishda kontekstga bog'liq, har bir emotiv frazeologizm o'z madaniyatining an'analarini aks ettiradi. O'zbek xalqining qadriyatlari va urf-odatlarini "tarvuzi qo'tig'idan tushdi", "og'zining tanobi qochdi" singari ko'plab iboralarda kuchli ifoda topadi. Bundan tashqari, emotiv frazeologizmlar ijtimoiy aloqalarda ham muhim rol o'ynaydi. Ular suhbatdoshlar o'rtasida samimiyatni oshirish yoki hissiy aloqalarni mustahkamlashda yordam beradi.

O'zbek tilidagi emotiv frazeologizmlar, nafaqat tilning boyligini aks ettiradi, balki milliy ruhiyat va ijtimoiy aloqalarni ham namoyon etadi. Diskurs tahlili orqali ularning ma'nosi yanada chuqurlashadi hamda ularning madaniy ahamiyatini ochib beradi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Fransuz tilida esa, emotiv frazemalar inson his-tuyg'ularini yanada yorqinroq, xilma-xil diskursiv vaziyatlarda ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday frazeologik birliklar ko 'p hollarda muayyan fe'l komponentli so 'z qo 'shilmalarini hosil qilishi bilan ahamiyatlidir. Masalan, *avoir* (avoir le moral à zéro, en avoir marre, avoir horreur de), *être* (être à l'aise, être au bout du nerf) kabi frazemalarni hozirgi zamon fransuz tilida tez-tez uchratish mumkin. Bunday frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishda kontekstual vaziyat, matn uslubi va muloqot ishtirokchilarining ruhiy holati tarjimon diqqat-markazida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Emotiv frazema til belgilari tizimida nozik va murakkab rol o'ynaydi. Ularning diskurs tahlili orqali his-tuyg'ularni chuqurroq anglash imkoniyati paydo bo'ladi. Til nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi, balki inson ruhiyatining turli jihatlarini aks ettirishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunday tahlillar tilshunoslik va psixologiya sohalarida yangi yondashuvlar yaratishda davom etmoqda hamda jamiyatimizdagi hissiy munosabatlarni yanada yaxshi tushunishga yordam bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati", "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent, 1978
2. Kholova Shahnoza Davronovna. (2022). SOME FEATURES OF CERTAIN PHRASEOLOGICAL UNITS TRANSLATION USED IN FRENCH LITERATURE OF THE NINETEENTH CENTURY. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 9, 70–74. Retrieved from <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/177>
3. Xolova, S. (2023). FRAZELOGIK BIRLIK-FRAZEMA-FRAZELOGIZM: TASNIF VA TADQIQOT TAHLILI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 27(27). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8679
4. Xolova, S. (2023). "AVOIR" FE'LI ISHTIROKIDAGI INSON HIS-TUYG'ULARINI IFODA ETUVCHI FRAZEMALAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 33(33). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9560
5. Xolova, S. (2023). Лингвистические особенности позитивно-эмотивных фраз во французском и узбекском языках. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 43(43). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11183



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

251.	FRAZELOGIK BIRLIKLAR - TIL LUG'AT TARKIBINING ICHKI MANBASI <i>Xalilova Zilola Farmonovna</i>	1063-1066
252.	TARIXIY ASARLARDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI <i>Xamdamov Oybek Abdulxayevich</i>	1067-1071
253.	KOGNITIV LINGVISTIKA KONTEKSTIDA KATEGORIYA VA KONSEPT MUAMMOSINING O'RGANILISH TARIXI <i>Xasanova Sohibjamol Soatmurod qizi</i>	1072-1074
254.	ZAMON VA ASPEKT MA'NOLARINING MUNOSABATI <i>Xasanov Ramish Samatovich</i>	1075-1077
255.	BADIIY MATNDA COLORONIMLARNING SEMANTIK VA STILISTIK FUNKSIYALARI <i>D.M.Xayitova</i>	1078-1082
256.	MEDIA VA REKLAMA DISKURSIDA NOSTALGIYA EFFEKTI <i>Xayitova Rushana Ximoyiddin qizi</i>	1083-1085
257.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI INTERYER DIZAYN TERMINOLOGIYASIDA SINONIMIYA MUAMMOSI <i>Xolmurotova Gulnora Sattorovna</i>	1086-1089
258.	INTERYER DIZAYN TERMINLARINING POLISEMANTIK XUSUSIYATLARI <i>Xolmurotova Gulnora Sattorovna</i>	1090-1094
259.	EMOTIV FRAZEMA TIL BELGILARI TIZIMIDA: DISKURS TAHLIL <i>Xolova Shahnoza Davronovna</i>	1095-1097
260.	OLAMNING LISONIY MANZARASI VA "RANG" KONSEPTIGA DOIR <i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	1098-1102
261.	GRAFOLOGIK EKSPERTIZA VA UNING O'RGANILISH TARIXI <i>Yo'ldosheva Yulduz Abdikarim qizi</i>	1103-1108
262.	ERKAK JINSIGA XOS EVFEMIZMLAR: O'ZBEK VA NEMIS TILLARI MISOLIDA <i>Yuldosheva Vohida Nazarovna</i>	1109-1113
263.	ПОНЯТИЕ ОБ ОМОФОРМАХ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ <i>Жумаева Феруза Рузикуловна, Хамидова Маржона Музаффар кизи</i>	1114-1119
264.	ЛИНГВОТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА <i>Маржан Адил кизи Камбарова</i>	1120-1123
JA'HON ADABIYOTINING DURDONA ASARLARI TADQIQI VA METODOLOGIYASI		
265.	INGLIZ VA O'ZBEK TEMURSHUNOSLIGI TADRIJI VA TARAQQIYOTI <i>Yaxshiyeva Zebo Rashidovna</i>	1124-1127
266.	ЗАЩИТА АВТОРСКИХ ПРАВ И НАУЧНОЙ ЭТИКИ: О НЕДОБРОСОВЕСТНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ НАУЧНЫХ ТРУДОВ <i>Якубов Музаффар Камилджанович</i>	1128-1132